

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/2025.27.12.F.10.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

DADABOYEV FARHODJON FOZILOVICH

**YANGI O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIDAGI
TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL**

09.00.04 — Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
philosophical sciences**

Dadaboyev Farhodjon Fozilovich

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlari:
ijtimoiy-falsafiy tahlil.....3

Дадабоев Фарходжон Фозилович

Трансформационные процессы в предпринимательской деятельности в
Новом Узбекистане: социально-философский анализ.....23

Dadaboyev Farkhodjon Fozilovich

Transformational processes in entrepreneurial activity in new uzbekistan: a
socio-philosophical analysis.....46

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.F.10.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

DADABOYEV FARHODJON FOZILOVICH

**YANGI O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIDAGI
TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL**

09.00.04 — Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2026

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Fal659 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasida (fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

O'roqova Oysuluv Jamoldinovna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ganiev Bahodir Sodiqjonovich
falsafa fanlari doktori, (DSc), professor

Muxtorov Azamat
falsafa fanlari doktori, professor,

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.F.10.02raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "___" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel: (99873) 244-44-02; Faks: (99873) 244-44-93; Veb-sayt: www.fdu.uz, e-mail: fardu_info@umail.uz Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti binosi, 2-qavat, 219-xona).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel./faks: (99873) 244-44-02.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____da tarqatildi.
(2025-yil "___" _____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi.)

M.A.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

B.S.Ganiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

S.U.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tadbirkorlik faoliyatining transformatsiyalashuvi, raqamli formatga o'tishi, gibrid ko'rinish kasb etishi sharoitida mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan yangicha tendensiyalarni kuzatilmoqda. Bugun tadbirkorlik sohasiga global internet tarmog'i va ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, biznesni rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarga muhtojlik tadbirkorlik faoliyatiga doir an'anaviy strategiyalaridan raqamli biznes strategiyalariga inqilobiy o'tishni zaruratga aylantirmoqda. Tadbirkorlik faoliyatidagi raqamli transformatsiya jarayonining jadallashuvi va undan to'g'ri foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishish imkoniyatlari global biznes muhitidagi yangicha munosabatlarning ijobiy va salbiy jihatlarini falsafiy tadqiq etish vazifalarini dolzarblashtirmoqda. Shu ma'noda, raqamli transformatsiyaga to'g'ri yondashish va samarali vositalarni joriy etish tadbirkorlik faoliyatini "transformatsiyalash" va uning imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyodagi yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarda tadbirkorlik faoliyatining transformatsiya jarayonlari yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Internet imkoniyatlari sabab tadbirkorlik shakl va ko'lamida o'zgarishlar yuz bermoqda, raqobat kuchaymoqda, global onlayn bozorlarda yangi faoliyat turlari paydo bo'lmoqda. Shu bilan birga, ayrim an'anaviy shakllarning yo'qolib ketish xavfi ijtimoiy, psixologik va sotsiologik tadqiqotlarni zarur qilmoqda. Tadqiqotlarda tadbirkorlik vazifalari va faoliyatining etnopsixologik asoslarini o'rganish, ishonchlilik, shaffoflik, kreativlik va innovatsion faollik kabi mezonlarni takomillashtirish masalalari ilgari surilmoqda. Global ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda tadbirkorlikdagi transformatsiya jarayonlarini ijtimoiy-falsafiy tahlil etish zaruratga aylanmoqda.

Mamlakatning yangi taraqqiyot bosqichida "Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish"¹ga qaratilgan alohida ustuvor maqsad va vazifalar belgilab olingan. Shu bois, mahallalarning "o'sish nuqtalari" va aholining tadbirkorlikdagi ixtisoslashuviga asoslanib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi kuchaytirilmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida esa tadbirkorlikdagi o'zgarishlar, zamon talablari va raqobatbardosh tadbirkorlarni yetishtirishga doir ijtimoiy-falsafiy va psixologik tadqiqotlarga ehtiyoj ortmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" Qonuni², 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-son Qarori³, O'zbekiston

¹ Mirziyoyev.Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – B. 112.

² O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" Qonuni. 2000 yil 25 may. 69-II-son.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”⁴gi PF-4947-son, 2021-yil 20-apreldagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6208-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”⁵gi PF-60-son farmonlari mazkur dissertatsiyaning me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarini bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Tadbirkorlik va ishbilarmonlik fazilatlariga doir fikrlar Sharq va G‘arb mutafakkirlarining asarlarida qadimdan uchraydi. “Avesto”da mehnat ulug‘lanib, dangasalik qoralangan⁶. Abu Rayhon Beruniy⁷ insonning bilim va mehnatga tayanishi orqali jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni anglab, ularni boshqarish qobiliyatini rivojlantirishini ta‘kidlaydi. Unga ko‘ra, bu faoliyat tadbirkorlikning zamonaviy ko‘rinishiga mos keladi. Abu Nasr Forobiy⁸ esa jamiyat shakllanishining asosi sifatida insonning moddiy ehtiyojlarini ko‘rsatgan. Ibn Xaldun⁹ esa jamiyatni moddiy tovarlar ishlab chiqaruvchilarning jamoasi sifatida talqin qilgan va inson salohiyati hamda mehnatiga alohida e‘tibor qaratgan Platon¹⁰ iqtisodiy erkinlikni adolatli jamiyatning asosi deb bilganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyatida raqamlashuv va transformatsiya jarayonlariga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, T.I.Zaslavskaya, Z.S.Sultonov, M.M.Munavvarshoev, S.S.Amonov, A.V.Sharonov va V.L.Martinovlar¹¹ tomonidan tadbirkorlikni infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasining ishbilarmonlik muhitiga ta‘siri o‘rganilgan. Shuningdek, V.S.Avtonomov, O.I.Titova, A.L.Juravlev, O.V.Lukyanov, T.S.Vavakina va T.Jurjenko singari olimlar tomonidan tadbirkorlik va ishlab chiqarish jarayonidagi gender o‘ziga xosliklar tadqiq qilingan.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”farmoni.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni. 29.01.2022 y.,

⁶ Avesto. A.Mahkamov tarjimasini. –Toshkent: Sharq, 2001. -B. 248.

⁷ M.M.Xayrullayev Buyuk siymolar, allomalar: O‘rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar. – T.: Ma‘naviyat, 1995. – B. 39

⁸ D.Tojiboyeva “Iqtisodiy nazariya” o‘quv qo‘llanma /Toshkent/ TMI.T.-2005 yil — B. 5

⁹ Ibn Xaldun Abdurahmon Abu Zayd Muhammad. Bayrut: Daral Kitab al Lubnani, 1956–1961. I jild. — Muqaddima 1–XIV, matn 1–465

¹⁰ Aflotun. Qonunlar. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2002. — B.95-96.

¹¹ Мартынов В.Л. Роль цифровых платформ в трансформации предпринимательства // Экономика и предпринимательство. — 2021. — №1. — С. 65–70.

Xorijlik olimlardan K.Makkonell va S.Bryuning o'z tadqiqotlarida "tadbirkorda biznes yuritishda dolzarb qarorlar qabul qiluvchi, yangi texnologiyalarni joriy etuvchi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga intiluvchi, tavakkalchilikka moyil shaxs"¹² ekanligini asolashga uringan bo'lsa, U.Djems insonda eng muhimi bu dunyoqarashdir¹³, Shuningdek, tadbirkorlikning ilmiy, nazariy-falsafiy masalalarini tadqiq etgan ilk olimlar qatorida M.G Lapusta, Y.L. Starostin¹⁴larni kiritish mumkin bo'lsa, Jahonda ushbu muammoning nazariy masalalari A.Smit,¹⁵ J.B.Sey, Y.A.Shumpeter, D.Rikardo, I.Kant, F.V.Gegel, J.J.Russo, Sh.L.Montesk, M.Peters va boshqa iqtisodchi olimlar asarlarida chuqur tadqiq qilingan.

O'zbekistonda tadbirkorlik va biznesning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini A.Vahabov, A.Gafurov, A.Razzaqov, D.Suyunov, Y.Abdullayev, I.Ochilov, M.Abdurahmanova, M.Sharifxo'jayev, M.Salyamova, N.To'xliyev, O.Namozov, R.Ubaydullayeva, S.Gulyamov, F.Otaxonov¹⁶, Y.Dodaboyev, H.Abulqosimov, ijtimoiy-falsafiy jihatlarini F.Turg'unboyev, B.G'aniyev¹⁷ B.Valiyev, Tur B.Talapov, M.Xolmatova, N.Annayeva, S.Norqulov, S.Safayeva, U.Utanova, F.Musayev¹⁸, J.B.Davletov. A.A.Sayitxonov¹⁹, huquqiy masalalarini A.Saidov, B.Ibratov, I.Jumanazarov, K.Sindarov, O.Oqyulov, R.Ro'ziyev va M.Choriyev, E.Xodjayev²⁰, SH.Ro'zinazarov, H.Rahmonqulovlar o'rgangan. Ularning ilmiy izlanishlari muammoning dolzarbligini, mohiyati va ahamiyatini to'g'ri anglashga yordam beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2020-2022-yillarga mo'ljallangan Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi PZ-2017-0930223-raqamli «Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etish hamda bu borada taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

tadbirkorlik faoliyatini transformatsiyalashuvining zaruriyati va deterministik asoslarini raqamli formatga aylantirishni tadqiq etish.

Yangi O'zbekistonda raqamli davr tadbirkorlarini shakllantirish omillari va etnopsixologik transformatsiya jarayonlari ochib berish.

¹² Макконелл К, Брю.С. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2-х томах. Том 1.–Москва: Республика, 2002. – С.38.

¹³ Джемс У. Прагматизм: новое название для некоторых старых методов мышления. Популярные лекции по философии пер. с англ. П.С.Юшкевича – Москва: ЛЕНАНД, 2015. –С. 240.

¹⁴ Лапуста., Ю.Л. Старостин. Малое предпринимательство. — Москва: ИНФРА, 2005. — 320 с.

¹⁵ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. — Москва.: Эксмо, 2007. –С. 87.

¹⁶ Otaxonov F. va b. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asoslari. – Toshkent: TDYUI, 2005. – 68 b.

¹⁷ B.G'aniyev "Yangi rivojlanish bosqichida tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy falsafiy jihatlari" (DSc) diss Andijon 2022 y.

¹⁸ Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – 8 b.

¹⁹ Sayitxonov.A. "Tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirishda innovatsion faoliyatning ijtimoiy-falsafiy tahlili" mavzudagi Falfafa fanlar bo'yicha doktorlik.(PhD).diss. Andijon 2022 y

²⁰ Ro'ziyev R., Choriyev M., Xodjayev E. Tadbirkorlik faoliyatida mulk va uni tasarruf etishning shartnomaviy-huquqiy asoslari. – Toshkent: Navro'z, 2014. – 144 b.

tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlarini zamonaviy raqamli vositalarga bogʻliqligini ochib berish.

Yangi Oʻzbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi gender transformatsiyalashuv jarayonlarining differensial xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida Yangi Oʻzbekistonda tadbirkorlik faoliyatini transformatsiyalashuv, raqamli transformatsiya va gibrid iqtisodiy oʻzgarish jarayonlari belgilab olindi.

Tadqiqotning predmeti sifatida Yangi Oʻzbekistonda tadbirkorlik faoliyatining transformatsiya jarayonlarini ijtimoiy-falsafiy yondashuv va metodlar asosida tadqiq etishdan iboratdir.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada umummilliy va falsafiy metodlar — tarixiylik, tizimlilik, praxiologik, sotsiologik, tahlil va sintez, umumlashtirish, abstraksiyalash hamda qiyosiy tahlil usullari qoʻllanilgan. Shuningdek, dialektik yondashuv, tushunchalar tizimi asosida tahlil, ontologik va gnoseologik yondashuv, aks ettirish nazariyasi, axloqiy va normativ baholash hamda ijtimoiy-falsafiy modellashtirish kabi falsafiy metodlardan ham foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Raqamli dunyoda tadbirkorlik faoliyatining transformatsiyalanish zarurati falsafadagi umumiylik va xususiylik kategoriyalari asosida nazariy jihatdan asoslab berildi. Transformatsiyaning ijtimoiy deterministik omillari hamda uning dinamiklik, tuzilmaviylik va “sabab–oqibat”ga tayanadigan rivojlanish xususiyatlari tizimli ravishda yoritilgan.

Yangi Oʻzbekistonda tadbirkor shaxsini shakllantirish jarayoni raqamli formatlar misolida ijtimoiy falsafiy jihatdan tahlil qilinib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tadbirkorlarning faol subyekt sifatida maydonga chiqishiga taʼsir etuvchi omillar aniqlab berildi. Bunda huquqiy, moddiy va maʼnaviy omillar bilan birga tadbirkorlikning etnopsixologik jihatlari — tadbirkorlik faoliyatini loyihalash, shaxsiy imkoniyatlarni roʻyobga chiqarish ehtiyoji kabi ichki motivlar transformatsiya jarayoni sifatida ochib berilgan.

Tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlarining shaxsga taʼsiri yangi ilmiy yondashuv asosida talqin etildi. Xususan, tadbirkordan ish uslubini oʻzgartirish bilan birga raqamli taʼlimni egallashga tayyorlik, yangilikka intilish, ijodkorlik, ishbilarmonlik, tashabbuskorlik va masʼuliyat kabi kreativ sifatlarni rivojlantirish zarurligi, hamda bu sifatlarning zamonaviy raqamli vositalar bilan integratsiyalanishini aniqlab berilgan.

Yangi Oʻzbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi gender transformatsiyalanish jarayonlari ilk bor differensial jihatdan oʻrganilib, uning immanent (ichki) xususiyatlari chuqur tahlil qilindi. Natijada ayol va erkak tadbirkorlarning transformatsiyaga moslashuv darajasi, oʻziga xos ehtiyojlari va rivojlanishlarini hisobga olgan holda tadbirkorlikni tashkil etish hamda boshqarishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: -raqamli dunyoda tadbirkorlik faoliyatini transformatsiyalashuvining zaruriyati, iqtisodiy-ijtimoiy deterministik asoslari falsafaning umumiylik va xususiylik kategoriyasi vositasida asoslandi; -Yangi Oʻzbekistonda raqamli davr tadbirkorlarini shakllantirish omillari

va etnopsixologik transformatsiya jarayoni ochib berildi; -tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlarini zamonaviy raqamli vositalarga bog'liqligi ilmiy asoslandi; -Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi gender transformatsiyalashuv jarayonlarining differensial xususiyatlarini aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilgani, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlari, tadbirkorlik ongi va madaniyatini shakllantirish, ishbilarmonlik tafakkurini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida "Falsafa", "Pedagogika", "Sotsiologiya", "Fuqarolik jamiyati", "Iqtisodiyot nazariyasi" kabi fanlar bo'yicha ma'ruza matnlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash shuningdek, jamoat tashkilotlarida ilmiy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini ijtimoiy-falsafiy tahlili bo'yicha:

raqamli dunyoda tadbirkorlik faoliyatini transformatsiyalashuvining zaruriyati, ijtimoiy deterministik asoslari va raqamli transformatsiyaning dinamiklik, tuzilmaviylik, "sabab-oqibat" kabi rivojlanish xususiyatlari falsafaning umumiylik va xususiylik kategoriyasi vositasida asoslanganligiga doir tavsiyalardan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan PZ-20170928696-raqamli "O'zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan va yuqoridagi tavsiyalar ushbu loyiha doirasida nashr etilgan ishlarda o'z aksini topgan (O'zbekiston milliy universitetining 2024-yil 17-apreldagi 02/11-12-5054-son ma'lumotnomasi). Natijalarning joriy qilinishi tadbirkorlik faoliyatini transformatsiyalashuvining zaruriyati, ijtimoiy deterministik asoslari va raqamli transformatsiyaning dinamiklik, tuzilmaviylik, "sabab-oqibat" kabi rivojlanish xususiyatlari tahlilini amalga oshirishga xizmat qilgan.

Yangi O'zbekistonda raqamli davr tadbirkorlarini shakllantirish orqali jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning faol vakillariga aylantirishdagi omillari (huquqiy, moddiy, ma'naviy) va etnopsixologik (tadbirkorlik faoliyatini loyihalash, tadbirkor sifatida o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ehtiyoji) transformatsiya jarayoni ochib berilganligiga doir taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-2023-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatiga keng tatbiq etilgan. Jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish chora-tadbirlar dasturi III-yo'nalishiga oid oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlashga doir chora-tadbirlar 10-bandi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"ning mazmun-mohiyati va uni

amalgaga oshirishning ilmiy-amaliy masalalari” mavzusida Respublika ilmiy-seminarini o‘tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024 yil 6-martdagi 412/2-son dalolatnomasi). Natijada yangi O‘zbekistonda raqamli davr tadbirkorlarini shakllantirish orqali jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning faol vakillariga aylantirishdagi omillari va etnopsixologik transformatsiya jarayoni takomillashtirilgan.

Tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlari tadbirkordan ish uslubini o‘zgartirish bilan birga raqamli ta’lim olishga intilish, yangilikka o‘chlik, ijodkorlik, ishbilarmonlik, shaxsiy tashabbus, mas’uliyat kabi kreativ sifatlarni rivojlantirishni zamonaviy raqamli vositalarga integratsiyalay olishiga bog‘liqligi ochib berilganligiga oid ma’lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqdimot” ko‘rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 10-apreldagi 04-36-1093-son Ma’lumotnomasi). Natijalarning joriy qilinishi tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlari tadbirkordan ish uslubini o‘zgartirish va kreativ sifatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlilini amalga oshirishga xizmat qilgan.

Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi gender transformatsiyalashuv jarayonlarining differensial xususiyatlarini aniqlash va uning immanent, ya’ni ichki belgilarini chuqurroq bilish asosida tadbirkorlikni tashkil etish va boshqarishga oid tavsiyalar ishlab chiqilganligiga doir tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan PZ-20170928696-raqamli “O‘zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston milliy universitetining 2024-yil 30-avgustdagi 02/11-8061-son ma’lumotnomasi). Natijalarning joriy qilinishi Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi gender transformatsiyalashuv jarayonlarining differensial xususiyatlari tahlilini amalga oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta maqola, (1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tadbirkorlik faoliyati mazmuni va u haqidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar evolyutsiyasi hamda yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini transformatsiyalashuvida rivojlangan davlatlar tajribasi tadqiq etilgan. “Jamiyatda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotgani, davlat iqtisodiy qudrati ortayotgani, xalq ma‘naviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani Vatan ravnaqining asosi bo‘ladi”²¹ Bu esa bizning tadqiqot ishimizni yoritishda tadbirkorlik fenomenini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek tadbirkorlik faoliyatida transformatsiya jarayonlarini tadqiq etish zaruriy masala sifatiga davr talabiga aylanmoqda.

“Tadbirkorlik” tushunchasi “tadbir”, “tadbirkor”, “tadbirli” so‘zlari negizida shakllangan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “Tadbirkor — ishlab chiqarishni yoki boshqa faoliyatni tashkil etuvchi, moliyalashtiruvchi, tijorat yoki sanoat korxonasini foyda olish maqsadida boshqaruvchi shaxs, mulkdor”²², deb ta‘rif berilgan H.H.Qo‘chqorov va M.A.Abdullayeva²³lar tadbirkorlik — bu shaxsning o‘z mol-mulki, bilim va tashabbusi asosida xatarni o‘z zimmasiga olgan holda yangi mahsulot yoki xizmat yaratish, bozor ehtiyojini qondirish maqsadida tashkil etilgan iqtisodiy faoliyat turidir deb tarif berganlar.

“Tadbirkor” va “tadbirkorlik” tushunchalariga berilgan ko‘plab ta‘riflarning siyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, aksariyat hollarda, har bir ta‘rifda muallifning yondashuvi va qarashlari aks etadi. Lekin bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida raqobat muhitining keskinlashuvi, dastlabki kapitalni shakllantirishning qiyinligi, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyasi va xom ashyo ta‘minotidagi muammolarni e‘tiborga olib, faqatgina mavjud kapital va resurslardan unumli foydalana olgan shaxsgina haqiqiy tadbirkor bo‘lib shakllana oladi, deyish mumkin. Tadbirkor — iqtisodiy resurslardan unumli foydalanuvchi hamda muayyan iqtidor va ishbilarmonlik xususiyatiga ega bo‘lgan faol shaxs²⁴. Ushbu ta‘rifning o‘ziga xos yangiligi shundaki, tadbirkorlik sarmoyasi va iqtisodiy imkoniyatlari ko‘pchilikda mavjud bo‘lishi mumkin, lekin undan unumli foydalana olish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Demak, xususiy yoki boshqa turdagi mavjud sarmoyadan unumli foydalana olgan insongina haqiqiy tadbirkor bo‘lib yetishadi, kishilarni ish bilan ta‘minlab, aholi bandligini ta‘minlay oladi.

²¹ Nazarov Q Falsafa qomusiy lug‘ati -«O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti» «Sharq» Toshkent – 2004.265-B

²² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild. –Toshkent.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2011, -B. 636.

²³ Qo‘chqorov H.H., Abdullayeva M.A. Iqtisodiyot nazariyasi. — T.: Iqtisod-moliya, 2020. — B. 145–149.

²⁴ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. — Москва.: Эксмо, 2007. –С. 87.

Tadbirkorlik nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga taniqli avstriyalik iqtisodchi olim Y.Shumpeter katta hissa qo‘shgan. Uning nazariyasiga ko‘ra, “Tadbirkorlik — yaratuvchanlik, yangilikni izlash demak”²⁵. U tadbirkorlikning vazifasi yangi ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish orqali yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi xom ashyo turlarini o‘zlashtirish va yangi bozorlar topib, tovarlarni sotishdan iborat, deya izohlaydi. Bunda tadbirkorlikning amal qilish belgilari, tadbirkorning vazifasi turli bozorlarda muvozanatni ta’minlashdan iborat, deb hisoblangan.

Tadbirkorlik faoliyati mohiyati, jamiyat rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati haqida ko‘plab iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va o‘z fikr mulohazalarini bayon etishgan. Jumladan, A.Smitning fikriga ko‘ra, “tadbirkorlik” — bu foyda olishga qaratilgan g‘oyani amalga oshirish uchun iqtisodiy tavakkalchilik harakatidir. Tadbirkorning o‘zi faoliyatni rejalashtiradi, tashkil etadi, uning natijalarini boshqaradi²⁶. J. B.Sey esa “tadbirkor” — axborot to‘plash va ishlab chiqarishni tashkil etish, xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida qaror qabul qilishda foydalanish mumkin bo‘lgan zarur tajribani to‘plash bilan shug‘ullanadi, deb hisoblagan²⁷. Y.Shumpeterning fikricha “tadbirkorlik” bu resurslarni noyob, innovatsion kombinatsiyalarga birlashtiruvchi va maxsus bilimlar, intuitsiya asosida ishlab chiqarilgan qayta tashkil etish hamda ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshiruvchi kuchdir²⁸.

Bizning mualliflik tarifimizga ko‘ra, tadbirkorlik shaxsiy tashabbus va manfaatlariga asoslangan, insonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda qatnashish, huquq va erkinliklarini ta’minlaydigan, iqtisodiy demokratiyaga taalluqli faoliyat turidir. Mazkur ta’rifda tadbirkorlikning iqtisodiy demokratiyaga oid faoliyat turi ekani qayd etiladi. Mazkur belgi tadbirkorlik faoliyatining fundamental xususiyatini tashkil qilmoqda.

Tadbirkorlik muammosiga qadimgi dunyo faylasuf olimlaridan boshlab to hozirgi davr tadqiqotchilariga qadar turlicha yondashuv va talqinlar bayon qilingan, ushbu faoliyat mohiyatiga bag‘ishlangan asarlar yaratilgan. Xususan, Qadimgi grek faylasufi Aristotel “Qonunlar” — asarida tadbirkorlik mohiyatini tadqiq qilib, jamiyatning barqaror va farovon yashashida ishbilarmonlikning o‘rnini yuksak pog‘onaga ko‘taradi²⁹.

Aristotel o‘zining “Siyosat”, “Etika”, “Ritorika” kabi asarlarida jamiyat taraqqiyoti va inson farovonligini ta’minlashda savdo-sotiq munosabatlarini muntazam takomillashtirish zarurati haqidagi g‘oyalarni ilgari suradi. Bunda tadbirkor shaxs adolatli ishlarga qo‘l urar ekan, adolatli, jasorat namunasini ko‘rsatar ekan, sadoqat sohibiga xos bo‘lgan fazilatlariga ega ekanligini isbotlaydi³⁰. Aristotel qarashlarida “tadbirkorlik faoliyati” bu, eng avvalo, dehqonchilik, hunarmandchilik

²⁵ Umarov I. Y. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida) // Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2009. –B. 13.

²⁶ Шумпетер Й. Теория экономического развития. — Москва.: Прогресс. 2003. — С. 48

²⁷ Сэй Жан-Батист Трактат по политической экономии, Фредерик Бастиа. Экономические софизмы. Экономические гармонии. М.: Дело, 2000. –С. 232.

²⁸ Шумпетер Й.А. Теория экономического развития (Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung). Изд. Директмедиа Паблшинг, 2008. –С. 400.

²⁹ Aflotun. Qonunlar. Rus tilidan O‘rfon Otajon tarjimasini. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. –B. 95-96.

³⁰ Аристотель. Политика. Соч. в. 4-х томах. Том-4, - Москва: Мысль, 2008, -С. 379.

va mayda savdo ishi bilan band bo‘lganlarning asosiy, sharaflil faoliyati deb e’tirof etilgan. Ularning maqsadi-tadbirkorlik bilan insonlarning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga erishish mumkinligi va ularga davlat g‘amxo‘rlik qilishi zarurligi ta’kidlangan³¹.

Tadbirkorlik madaniyatining nazariy asoslarini yaratishda va uning yuksalishida mashhur faylasuf Ibn Xaldun Abdurahmon Abu Zayd Muhammadning hissasi katta bo‘lgan. Ayniqsa uning mashhur “Kitob ul-ibar” (“Ibratli misollar kitobi”) asarida jamiyat taraqqiyoti moddiy tamoyillarga asoslanishi, jamiyat a’zolarining hamkorlikdagi ishlab chiqarish faoliyati, “jamiyatning moddiy tovarlar ishlab chiqaruvchilar jamoasidan iborat” ekani, hunarmandchilik, fan, adabiyot va san’atning rivojlanishi mehnat unumdorligi³²ning o‘sishi bilan uzviy bog‘liqligi haqidagi nazariy mulohazalar ilgari surilgan. Faylasuf hunarmandlar o‘z kasbiy malakasini doimo oshirib borishi, tadbirkorlik ilmidan xabardor bo‘lishini e’tirof etib, ular uchun axloqiy qoidalarni yaratgan. Ushbu tavsiyalarda hunarmandlarning kiyimini toza tutishi, pok vijdonli bo‘lishi, piru ustozdan yordam so‘rashi, olimlar bilan do‘st bo‘lishi, hisob-kitob ishlarini to‘g‘ri tashkil etishi, shogirdlarini o‘qitishi, xushmuomala bo‘lishi, ehson-sadaqa berishi, ish joyini toza tutib, huzuriga keluvchilarni izzat-ikrom bilan kutib olishi va hurmat bilan kuzatishi haqida fikrlar bayon etilgan.

O‘z davrida taniqli faylasuf olim Nizom ul-Mulk ham tadbirkor faoliyatiga to‘siq bo‘luvchi turli illatlarni keskin tanqid ostiga oladi. Nizom ul-Mulk o‘z qarashlarida hukmdorlar, amirlar, amaldorlar va qozilarning mansabini suiiste’mol qilib, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymasligi, soliq islohoti, davlat mablag‘larini saqlash va sarflash, hisob-kitob ishlari haqida aniq fikrlarni bayon qilgan³³.

Tadbirkor shaxs biznesni yuritish, olinadigan foydani ko‘paytirish bo‘yicha qarorlar qabul qiladi, bu qarorlar mazmuni korxonada faoliyatining maqsadini aniqlab beradi. O‘z navbatida biznes odamlarni o‘zaro munosabatlari, sohasi jamiyatda inson faoliyatining muayyan ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon biznesni quyidagi kategoriyalarda ko‘rib chiqish imkonini vujudga keltiradi: inson-tovar-inson. Amerikalik tadqiqotchilar T.Rubel va S.Paladinolarning ta’kidlashicha, “Tadbirkorlar jamiyatga boylikni olib keladilar.”³⁴ Biznes tarmoqlari bu avvalo shaxsni tovarlar yoki xizmat ko‘rsatish sohalaridagi o‘zaro munosabatlardan tashkil topgan tizimdir. Faylasuf tadqiqotchilarning fikricha, biznes faoliyatini boshlashda uchraydigan samarasiz urinishlar, bozorni saralash va uni yanada savdobop qilish jarayonining bir bo‘g‘iniga aylanadi.³⁵ Yuqoridagi fikrga tayangan holda biz, tadbirkor inson faoliyati ijtimoiy jarayonlarga tayyor tavakkalchi shaxs tushunchalarni qamrab oladi. Bu jarayon tadbirkorlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, biznes falsafasini maqsadini yangi ijodiy marralariga chiqish imkonini beradi.

³¹ Алаев Л.Б., Ацамба А.А., Вигасин А.А., Воробей Н.В. и другие. Экономические взгляды Аристотеля. Всемирная история экономической мысли. В 6 томах. - Москва: Мысль, 2007. Том-1. –С. 127-135.

³² Ibn Xaldun Abdurahmon Abu Zayd Muhammad. Bayrut: Daral Kitab al Lubnani, 1956–1961. I jild. — Muqaddima 1–XIV, matn 1–465

³³ Nizomulmuluk. Siyosatnoma yoki Siyar ul-muluk. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2017. –B. 304.

³⁴ Rubel T., Palladino S. The significance of small business. Small Business Research Trust, NatWest Bank. PCP, 2019, - 207 p.

³⁵ Kessen G.N. Puldorlik san’ati. -Toshkent: Kamalak, 1996. –B.3.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlikni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish, bu jarayonda milliy qadriyatlar va madaniy muhitni inobatga olgan holda ilmiy-amaliy asoslarni shakllantirish muhimdir. Raqamli transformatsiyaning samarali joriy etilishi uchun axborot madaniyati, gender yondashuvlar, boshqaruvdagi ishtirok va raqamli tenglik masalalarini chuqur o‘rganish zarur.

Ijtimoiy so‘rovlar natijasida ayollar va erkaklar teng imkoniyatlarga ega deb e‘tirof etilgan bo‘lsa-da, amaliyotda gender stereotiplari saqlanib qolayotgani ayollarning, ayniqsa, rahbarlik va tadbirkorlikdagi raqamli ishtirokiga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, raqamli transformatsiyaning tadbirkorlik sohasiga ta‘sirini tahlil etishda gender-menejment yondashuvini izlanish predmetiga aylantirish zarur. Bunda empirik tadqiqotlar va aniq metodikalar asosida gender tengligi va raqamli imkoniyatlar uyg‘unligi baholanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim bo‘lmoqda.

Dissertatsiyaning **“Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini raqamli texnologiyalarning ahamiyati”** deb nomlangan mazkur bobida yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda raqamli transformatsiya jarayonlarining ta‘siri tahlili keltirilgan.

Ayrim tadqiqotchilar fikricha, mijozlarga e‘tiborni kuchaytirish va qiymatni differentsiyalash, xarajatlar samaradorligi, atrof-muhit barqarorligi, ishchilar xavfsizligi, ishlab chiqarishning umumiy samaradorligi, bozor konsentratsiyasi va globallashtirish, qaror qabul qilish jarayonini yengillashtirish kabilar tadbirkorlik faoliyatida raqamli transformatsiyaning drayverlari bo‘lib xizmat qilmoqda³⁶.

Transformatsiya — bu jamiyat, tafakkur, hodisa yoki tizimning sifat jihatdan o‘zgarishi, yangi shaklga aylanishi jarayonidir. Falsafiy nuqtai nazardan, transformatsiya oddiy o‘zgarish emas, balki mavjud mazmunning yangilanishi, tub mohiyatning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu atama ko‘pincha ijtimoiy tizimlar, iqtisodiy tuzilmalar, madaniyat, tafakkur, ong va qadriyatlar tizimi o‘zgarishlarini ifodalashda qo‘llaniladi³⁷. Bizning tadqiqot ishimizdagi tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlari — bu tadbirkorlik tizimining ichki mazmuni va tashqi shakllarida yuz berayotgan chuqur, sifat jihatdan yangi o‘zgarishlar jarayonidir. U faqatgina tashkiliy-huquqiy shaklning yangilanishi emas, balki biznes yuritish uslublari, menejment, innovatsiyalarni qo‘llash, raqamli texnologiyalar integratsiyasi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy mas‘uliyat hamda inson resurslariga yondashuvdagi tub o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi.

S.Matt va boshqalar har qanday tashkilotning raqamli transformatsiyalashuvi strategiyasi texnologiyalardan foydalanish, qiymat yaratish jarayonidagi o‘zgarishlar, tuzilmaviy o‘zgarishlar va moliyaviy jihatlarni qamrab olishi zarurligini ta‘kidlashadi³⁸.

³⁶ Lammers, T., Tomidei, L., Regattieri, A. (2018). What causes companies to transform digitally/ An Overview of Drivers for Australian Key Industries. 2018 Portland International conference on Management of Engineering and Technology (PICMET).

³⁷ X.Xasanov va boshqalar. Falsafa: Ensiklopedik lug‘at / Tahrir hay‘ati: X.Xasanov va boshqalar. — Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2004. — B. 296.

³⁸ Matt, C., Hess, T., Benlian, A. Digital Transformation Strategies. Business & Information Systems Engineering, 2015-y 57(5), Pp 339–343.

Tadbirkorlik faoliyatida transformatsiya yangi texnologiyalar orqali mijozlarga xizmat sifatini oshirishga qaratilgan. Ijtimoiy tarmoqlarning joriy etilishi ilgari inqilob sifatida qaralgan bo'lsa-da, bugun bu yetarli emas. An'anaviy strategiyalardan raqamli biznesga o'tish kompaniyaga raqobatda ustunlik beradi, biroq bu qat'iy harakat va tayyorgarlikni talab etib kelmoqda.

Ba'zi jarayonlar tez va samarali joriy qilinadi, boshqalari esa uzoq muddatli o'zgarishlarni talab qiladi va mijozlarning qarshiligiga duch keladi. Transformatsiyaga to'g'ri yondashuv va samarali vositalar kompaniyani raqamli makonda faol ilgari surishga xizmat qiladi. Bu faqat ma'lumotni raqamlashtirish emas, balki eskirgan jarayonlardan voz kechib, zamonaviy texnologiyalar orqali biznesni rivojlantirishdir. Transformatsiya jarayonlarida raqamlashtirish juda katta sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Bir necha o'n yillar oldin biznesni faqat mahalliy darajada targ'ib qilish mumkin edi. Gazetalardagi mahalliy e'lonlar, ustunlardagi e'lonlar va tashrif qog'ozlarini tarqatish kabi. Keyin veb-saytlar paydo bo'ldi va kompaniyalar asta-sekin, bir vaqtning o'zida televizorda reklama berish bilan birga raqamli makonga kira boshladilar.

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatida transformatsiya yangi to'liqini boshdan kechirmoqda. Sun'iy intellekt faol rivojlanmoqda, mashinani o'rganish amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, har qanday o'zgarishlar muayyan qiyinchiliklar bilan bog'liq. Ko'pgina mijozlar yangi texnologiyalarni qabul qilishga tayyor emas. "Eskicha fikrlaydiganlar" chat bot orqali muloqot qilishdan ko'ra, kompaniyaga qo'ng'iroq qilishni afzal ko'rishadi. Yangi funksiyalarni joriy etish ularni ulardan qanday foydalanishni o'rganishga vaqt ajratishga majbur qiladi. Hamma ham bunga tayyor emas. Shuning uchun ba'zi mijozlar ketishlari mumkin. Sun'iy intellekt va mashinani o'rgatish sohasidagi yechimlar. Sun'iy intellekt tobora ommalashib bormoqda, chunki bu sizning shaxsiy ma'lumotlaringiz asosida doimiy ravishda o'rganadigan mashinaga qaror qabul qilishni ishonib topshirish imkoniyatidir.

Tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya biznes samaradorligini oshirish uchun tashkilotda innovatsion va yangi raqamli texnologiyalarni joriy etishni anglatadi. Bu, o'z navbatida, takomillashtirilgan va kengaytirilgan mijozlarga qiymat yetkazish talablarini qondirish uchun operatsion modellarni o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Fikrimizcha, har qanday biznes uchun raqamli transformatsiyaning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:– mijozlarning qoniqishini oshirish; – mijozlarning tajribasini oshirish; – mehnat unumdorligini oshirish; – mahsulot va xizmatlardan tushgan daromadni oshirish; – xarajatlarni kamaytirish. Raqamli transformatsiyani amalga oshirishning muhim shart-sharoitlari sifatida axborot jamiyatining global rivojlanishi, yangi istiqbolli raqamli texnologiyalarning (virtual reallik texnologiyalari, sun'iy intellekt, ulkan ma'lumotlar, mashinali o'qitish va neyron tizimlar, robototexnika, buyumlar interneti) keng qo'llanilishi, raqamli ta'lim muhitining shakllanishi, internet tarmoqlariga ulanish imkoniyatining keskin oshishi kabilarni keltirish mumkin. Tadbirkorlik faoliyatida transformatsiya, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali takomillashtirilgan mahsulotlar, xizmatlar va biznes modellariga erishish uchun birgalikdagi tashkiliy ishlarni

tartibga solishga qaratiladi³⁹. Har qanday zamonaviy kompaniya singari, tijorat banklarining maqsad va vazifalarini amalga oshirish axborot texnologiyalari (IT) va bank o'rtasida uzluksiz, doimiy dinamik tarzda amalga oshiriladigan axborot tizimlarini strategiyalar jarayonini talab qiladi⁴⁰. Tadbirkorlik faoliyatida transformatsiya yangi innovatsion biznes modellarini yo'lga qo'yish, biznes jarayonida qo'llaniladigan o'rnatilgan qurilmalar, ijtimoiy media, mobil, bulut, tahlil va buyumlar interneti kabi raqamli texnologiyalar vositasida operatsiyalarni optimallashtirish va mijozlar uchun qiymat va tajribani oshirish orqali biznes samaradorligini sezilarli oshirishga xizmat qiladi⁴¹. Tadbirkorlik faoliyatida transformatsiya strategiyasi raqamli transformatsiya sari yo'lni belgilaydi va raqamli texnologiyalarning integratsiyalashuvi va ulardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan jarayon orqali menejerlarga yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bugungi kunda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so'zlari bilan aytganda, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz. Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va biznes muhitini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida, Jahon banking "Biznes yuritish – 2022" hisobotida O'zbekiston 7- pog'onaga ko'tarilib, 69-o'rinni egalladi va dunyoning eng yaxshi 20 ta islohotchi davlati qatoridan joy oldi. Yangi korxonalar ochish qulayligi bo'yicha yurtimiz ilk bor dunyoda sakkizinchi o'ringa ko'tarildi⁴².

Hozirgi kunda jahon eksporti rivojlanishining global tendensiyasi elektron sotuvlar va onlayn eksportning o'sishi hisoblanadi. Tashqi bozorga yo'naltirilgan o'z Internet-savdo saytini yaratishdan farqli o'laroq, ko'plab eksport qiluvchi kompaniyalar allaqachon tasdiqlangan Internet-savdo saytlaridan foydalanishni ma'qul ko'rishadi. Ular elektron tijorat savdosini boshlashda eng past narxni ta'minlaydi. Hozirgi vaqtda turli xil tovarlar va xizmatlarni sotishni ta'minlaydigan ko'plab elektron savdo maydonchalari mavjud. Eng mashhur raqamli platformalar qatorida Alibaba, Aliexpresse, Ebay, Amazon, Etsy, Uzum Market va boshqalarni qayd etish mumkin. Raqamli savdo texnologiyalaridan foydalanish katta moliyaviy sarmoyalarsiz xaridorlar sonini keskin oshirishi mumkin, bu biznes uchun juda foydali jarayon hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda ko'p tarmoqli bozorlar mavjud, xususan, Alibaba.com, shuningdek, tor profilli raqamli platformalar faoliyati muayyan mahsulot yoki geografik joylashuvga qaratilgan. Odatda, yirik xalqaro bozorlar maqsadli auditoriyani aniqlab olish va milliy o'ziga xosliklarni hisobga olish uchun domenlar bilan mintaqaviy filiallarni yaratadi, Bular jumlasiga Fransiya va Buyuk Britaniya kabi davlatlarni kiritishimiz mumkin. Xitoy onlayn sotishda

³⁹ Hess, T. Options for formulating a digital transformation strategy. MIS Quarterly Executive, 2016-y). 15(2), 123-139,

⁴⁰ Karpovsky, A. and Galliers, R. D. 2015. Aligning in Practice: From Current Cases to a New Agenda. Journal of Information Technology 30, 2 2015-y, 136- 160.

⁴¹ Matt, C., Hess, T., Benlian, A. Digital transformation strategies. Business information systems engineering, 2015-y. 339–343.

⁴²https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2019/10/24/doing-business-2020-reforms-propel-uzbekistan-to-place-among-worlds-top-20-business-climate-improvers?utm_source=chatgpt.com

yetakchi hisoblanadi, u butun dunyo bo‘ylab sotuvchilar va xaridorlarga xizmat ko‘rsatadigan ko‘plab bozorlarga ega.

Jahondagi xalqlarning hayot yo‘liga nazar tashlasak, biron bir hodisaning shunchaki paydo bo‘lmaganligini uchratmaymiz. Shu nuqtai nazardan qaraganda aholining ishbilarmonlik tafakkuri rivojiga asoslangan tadbirkorlik qobiliyatining rivojlanish obyektiv zaruriyatdir. Chunki, aholining ishbilarmonlik tafakkurni rivojlantirish va tadbirkorlik qobiliyatini o‘stirish mamlakatimiz iqtisodiyoti, siyosati, madaniyatining birinchi navbatda o‘z ichki ehtiyoj va manfaatlarini ta‘minlashga qaratilganligini va ijtimoiy borliqda mavjud bo‘lgan bir qator tadbirkorlarning o‘zaro ichki, muhim, qaytarilib turadigan bog‘lanishlaridan paydo bo‘ladigan yangicha mazmundagi ma‘naviy-axloqiy normalarning vujudga kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Aholining ishbilarmonlik tafakkurini rivojlantirish va tadbirkorlik qobiliyatini o‘stirishda bilimlilik va bilimsizlik oqibatida kelib chiqadigan ijobiy va salbiy tomonlarni axloqiy-ma‘naviy jihatdan baholay olish konseptual ahamiyatga molik bo‘lgan masalalar jumlasiga kiradi. Tadbirkorlik qobiliyatini o‘stirish orqali uni chinakamiga to‘la qonli vujudga aylantirishda tadbirkorlik bilan shug‘ullanmoqchi bo‘layotgan shaxsning xulq-atvori alohida o‘rinni egallaydi. Ularning ishbilarmonlik tafakkurini rivojlantirish va tadbirkorlik qobiliyatini o‘stirishda orqali tadbirkorlarning yangi avlodini tarbiyalab yetishtirishda quyidagi ikkita axloqiy-ma‘naviy prinsipga tayanish kerak bo‘ladi.

